

**TARIX FANI DARSLARINI YANGI INTERFAOL USULLAR ASOSIDA
TASHKILLASH ASOSIDA FAN O'QITUVCHILARIKA USLUBIY
TAVSIYALAR**

*Mo'minjonov Ixtiyorjon Baxtiyorjon o'g'li
Abbozov Boburbek Zaribjon o'g'li
Farg'ona viloyati Farg'ona tumani 3-sonli o'rta ta'lif maktabi
Tarix fani o'qituvchilari*

Anotatsiya: Ushbu uslubiy tavsiyada tarix fani o'qituvchilari uchun yangi interfaol usullarda dars o'tishning o'ziga xos ijobiy tomonlari haqida fikrlar keltirilgan.


Kalit so'zlar: zamonaviy, innovatsiya, metodika, texnika,

“Tarix” arabcha so‘z bo‘lib, “o‘tmish”, “o‘tgan voqealar haqida hikoya” degan ma’nolarni anglatadi. Tarix odamlarning eng qadimgi zamonlardan to hozirgacha bosib o‘tgan hayot yo‘li, bugungi hayotni qanday qurbanligi haqida ma’lumot beradi. Tarixni o‘rganish orqali odamlarning uzoq va yaqin o‘tmishda nima bilan mashg‘ul bo‘lganliklarini, qanday yashaganliklari hamda qanday tarixiy voqealar yuz bergenligini bilib olasiz. Tarix fani — insoniyatning butun o‘tmishi davomida jamiyat hayotida sodir bo‘lgan voqe-hodisalar, jarayonlarni (jamiyat rivojini) yaxlit bir tarzda o‘rganadi. Tarix fani o‘tmishda sodir bo‘lgan jarayon va hodisalar orasidagi o‘zaro bog‘liqlik, ularning ildizi, tarixni harakatlantiruvchi sabablar, uning mantig‘i va ma’nosini ko‘rish imkonini beradi. Ijtimoiy va gumanitar fanlar tarix tadqiqotlari natijalariga tayanadi. Fanlararo yondashuv jamiyat haqidagi yaxlit tasavvurni shakllantirib, o‘tmishni va hozirni anglash orqali jamiyat rivoji istiqbolini ko‘ra bilishdek muhim vazifani hal qiladi.

Maktabda tarix darslarini tashkil etishda “Fikrlarning tarmoqlanishi”, ”BBB”, ”FSMU”, ”VENN diagrammasi”, ”Charxpalak”, ”Tushunchalar tahlili”, ”Raqmlar so’zlaganda”, ”Baliq skleti”, ”Yelpig’ich”, ”Bumerang”, ”Zakovat”, ”Ha yoki yo’q”, ”Zinama-zina”, ”Sinkveyn”, ”SWOT” tahlili kabi innovatsion, noan’anaviy ta’lim metodlaridan foydalanish mumkin bo‘lib, darslarni pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishda ularning ahamiyati katta. Bu kabi metodlarni har bir o’qituvchi o’zi dars beradigan o’quvchilarning xarakteri, iqtidori va qiziqishlaridan kelib chiqib o’ziga xos yo’nalishda tashkil etishi, o’zgartirishi, ijodiy rivojlantirishi yoki o’xhash variantlaridan foydalanishlari mumkin. Bir so‘z bilan aytganda, bunday o’yinlar mavzularni o’quvchilarga oson va tushunarli berishning yo’llaridan biri hisoblanib, o’qituvchi yangi-yangi ta’limiy o’yinlarni darslarida qo’llashi, hatto o’zi ham shunday o’yinlarni o’ylab topishi mumkin. Zero, biz yangiliklar, axborotlar asrida yashayapmiz.

Avvalo dars boshlashdan oldin o'quvchilar sonidan kelib chiqib, ikki yoki uch guruhga ajratiladi. Guruhlar tarix fanidan kelib chiqib, "Temuriylar", "Boburiylar" deb nomlanadi. "Kun yangiliklari"ni o'tkazish orqali yurtimizda bo'layotgan voqeа va hodisalar haqida axborot tinglanadi. Tarix fanida o'tilagan mavzular asosida "Klaster" (g'uncha, bog'lam) metodi pedagogik, didaktik strategiyaning muayyan shakli bo'lib, u o'quvchilarga ixtiyoriy muammolar xususida erkin, ochiq o'ylash va shaxsiy fikrlarni bemalol bayon etish uchun sharoit yaratishga yordam beradi. Mazkur metod turli xil g'oyalar o'rtasidagi aloqalar to'g'risida fikrlash imkoniyatini beruvchi tuzilmani aniqlashni talab etadi. "Klaster" metodi aniq ob'ektga yo'naltirilmagan fikrlash shakli sanaladi. Undan foydalanish inson miya faoliyatining ishlash tamoyili bilan bog'liq ravishda amalga oshadi. O'quvchilar bilan yakka tartibda uy vazifasini bajargan yoki bajarmaganligini bilish uchun "Aqliy hujum" metodidan foydalangan holda aniqlik kiritish mumkin. Yana "Aqliy hujum" metodidan ba'zi sabablarga ko'ra darsga kech kelgan o'quvchilar bilimini tekshirish va ularni boshqa kech qolmasligini ta'minlash uchun ham qo'llashni tavsiya qilgan bo'lar edim. "Aqliy hujum" metodi uchun savollar: Tarix fani nimalarni o'rgatadi?, O'zbek tarixining buyuk siymolarini sanab bering, Tarix fanining maqsad va vazifalari qanday? O'quvchilar bilan tez-tez savol-javob o'tkazish bilim doirasini kengaytiradi. Savollarni bilmagan o'quvchilarni jazolash (raqsga tushish, qo'shiq va she'r yoki sanalarni yoddan aytish) orqali ham bilim olishga intilishlarga sabab boladi.

Venn diagrammasi usulida o'quvchilarda mavzuga nisbatan tahliliy yondashuv, ayrim qismlar negizida mavzuning umumiyligi mohiyatini o'zlashtirish (sentezlash) ko'nikmalarini hosil qilishga yo'naltiriladi. Strategiya kichik guruhlarni shakllantirish asosida sxema bo'yicha amalga oshiriladi. Yozuv taxtasi o'zaro teng 3 bo'lakka ajratiladi va har bir bo'lakka sxema chiziladi. Avval ikkala mavzu haqida ma'lumot yoziladi. So'ng ularning o'xshash tomonlari yoziladi va ikkita mavzu haqaidagi ma'lumotlar mustahkamlanadi.



Bu usul ko'nikma hosil qilishda, tushuncha va axborotlarni umumlashtirish hamda ixchamlashtirish uchun tez va kuchli vosita bo'lib xizmat qiladi.

Tarix faniga oid mavzularni tez yod olish va xotirada mustahkam saqlash uchun o'quvchilar bilan "Tezkor savol-javob" o'tkazish kerak. Guruhlar uchun beshtadan aniq va lo'nda javobga ega savollar beriladi. Masalan:

1. Tarix otasi kim? 2. Shiroq qaysi shohga qarshi kurashgan vatanparvar inson edi? 3. Tarixiy obidalarimizdan qaysilarini bilasiz?. 4. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov asarlarini sanab o'ting. 5. Boburiylar sulolasi Hindistonda necha yil hukmronlik qilgan? (Izoh: savollar o'quvchilar yoshi va bilim saviyasiga mos holda tanlansa, maqsadga muvofiqdir)

O'quvchilar bilan yakka tartibda uy vazifasini bajargan yoki bajarmaganligini bilish uchun "Aqliy hujum" metodidan foydalangan holda aniqlik kiritish mumkin. Yana "Aqliy hujum" metodidan ba'zi sabablarga ko'ra darsga kech kelgan o'quvchilar bilimini tekshirish va ularni boshqa kech qolmasligini ta'minlash uchun ham qo'llashni tavsiya qilgan bo'lar edim.

"Sanalar tilga kirganda" interfaol usuli orqali o'tilgan mavzuga oid muhim sanalar slayd yoki ko'rgazmali holda ko'rsatilib, voqealar haqida so'rash orqali amalga oshiriladi:

Ushbu metod tarix darslarida tez-tez qo'llansa, o'quvchilarning sanalarga diqqatli bo'lismi va yodlab olish qobiliyatlarini shakllanishiga sabab bo'ladi.

Uyga vazifa berishda qo'shimcha holda o'quvchilarning izlanishi va qiziqishlarini shakllantirish maqsadida tug'ilib o'sgan qishlog'i, mahallasi va viloyatidagi tarixiy joylar haqida ma'lumotlar to'plash topshirilsa, ona-Vatanga mehr-muhabbat, tarixga, ota-bobolar merosiga hurmat-ehtirom tuyg'usi shakllantiriladi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, o'rta ta'lif maktablarida tarix fanini o'qitishda zamonaviy texnologiyalar o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini oshirishda, qolaversa mavzularni oson tushunishlariga, bilim va ko'nikmalarini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchi-pedagog borki, izlanishlar bilan yangiliklarga intilib darslarni zamonaviy usulda tashkil etsa, o'zi hatto o'quvchilari ham yuksak yutuq va marralarni zabt etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. N.N.Azizzxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik maxorat.-T.: TDPU. 2003.
2. Asqarov A. O'zbekiston mustaqilligi sharoitida tarix fanining vazifalari.- "O'zbekistonda ijtimoiy fanlar" 1992. № 7-8.
3. Gaffarov YA, Gafforova M. O'zbekiston xalqlari tarixini o'qitish usullari.T., 1996.